
Tanlovda ishtirok eting va g'oliblikni qo'lga kiriting



Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-yanvardagi "2022-yildagi Respublika ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, diniy bag'rikenglik hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar samaradorligi va ta'sirchanligini yanada oshirish to'g'risida"gi 4-son bayoni bilan tasdiqlangan **"Ekstremizm va terrorizm missionerlik g'oyalariga qarshi ma'naviy-ma'rifiy, tasviriy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish dasturi"**ning 4-bandi ijrosi **bo'yicha** o'quvchilar o'rtasida rasmlar tanlovi o'tkaziladi.

Tanlov **"Ekstremizm, terrorizm va missionerlikning mudhish qiyofasini fosh etish"** mavzusida tashkil etilib, tanlovda eng yaxshi rasm chizgan o'quvchilar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi. Tanlov yakunida saralangan eng yaxshi ishlar (1, 2, 3-o'rinlar) joriy yilning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markaziga taqdim etiladi.

Aziz o'quvchi-yoshlar tanlovda ishtirok eting, o'z iste'dodingizni namoyon etgan holda g'oliblikni qo'lga kiriting!